

XVI ASRDA “HAMLET” VA “SHEKSPIR” XXI ASRDA UNING O‘QUVCHILARI: AN’ANAVIYLIK DAN ZAMONAVIYLIKKA

To‘g‘onova Dinoraxon Mansurjon qizi

ToshDO‘TAU 2- kurs magistranti

tuganovadinara82@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi globallashuv davrida yoshlarni tarixiy shaxslar va ularning qimmatbaho asarlari bilan tanishtirish, asrlarga yuzlashgan asarlarni yangicha metodlar orqali tahlil qilish masalasi ko‘rib chiqildi. Har qanday asarni o‘qitishdan avval ijodkor shaxsiyati bilan tanishtirish qanchalik muhim ekanligi maqolada yoritib berildi.*

Kalit so‘z: *Uilyam Shekspir, “Hamlet”, Ovidiy, Plavt, Richard Berbej, “Otello”, Bolduin, metod, Qozoqboy Yo‘ldoshev, Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika, Finlandiya.*

Jahon adabiyoti tarixini Shekspir ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Uning teatr san‘atiga qo‘shgan hissasi beqiyos. Adibning tragediyalari jahon adabiyoti durdonalari safidan o‘rin olgan. Shekspir asarlari bugungi kunda ham dunyo sahnasidan tushmay kelyapti. Shuncha samarali mehnati va shon- shuhratiga qaramay, adib hayoti davomida hech qanday mukofot olmagan, diplom bilan ham taqdirlanmagan. Uilyam Shekspir ingliz dramaturgi va uyg‘onish davrining shoiri, qirol truppassi aktyori. Shekspirning tavallud sanasi ma‘lum emas. 1564-yilning 26- aprelida cho‘qintirilgani yozib qoldirilgan xolos. Xususan, uning Ovidiy va Plavt kabi shoirlar ijodi bilan tanishgani ma‘lum. 1592- yilda Londondagi Richard Berbejning “Lordning kamerger xizmatkorlari” artistlar truppassi a‘zosi bo‘lgan. Umuman, adibning Londondagi 1592- yilgacha bo‘lgan faoliyatini tatqiqotchilar “hayf ketgan yillar” deb ham nomlashadi. Chunki uning ana shu davrdagi hayoti bilan bog‘liq birorta hujjat saqlanib qolmagan.

[Ismatova Yulduz Shuhrat qizi “Shekspirning “Otello” tragediyasi asliyatdan tarjimasi tahlili (Jamol Kamol tarjimalari asosida) Samarqand, 2014, 17-bet] Uning hayoti haqida odatda shunday hikoya qilinadi: Bola uzoq o‘qiy olmadi. Uning oilasi qashshoqlik davriga kirgan edi. Adib o‘smirlik davrida o‘z yurtidan ketishga majbur bo‘ladi. Uning hayot yo‘li deyarli mashaqqatdan iborat bo‘lgan. Oxir oqibat adib Londonga borib, teatrga ishga qabul qilingan. Teatrda kichik rollarni ijro etishni boshlaydi. U mashhur teatr aktyori bo‘la olmadi, lekin sahna hayotini yaxshi o‘rgandi. Bu esa adibning teatr uchun pyesalar yoza boshlaganida juda kata yordam berdi. Shekspir yashagan davr og‘ir, notinch, jo‘shqin davr edi. Angliya urush olib borar, yangi mustamlakalarni zabt etardi. Voqea qaysi davr yoki qaysi mamlakatda ro‘y berishidan qat’i nazar – mana shu jo‘shqin davr mashhur dramaturgning har bir asarida o‘z aksini topdi. Kishilar Shekspir asarlarini o‘qiydilar va sahnada tomosha qiladilar, undagi insonlar taqdiri va xarakteri haqida bahslashadilar. Ba’zan ular, buning siri nimada, deb o‘ylab qoladilar ham. Nima uchun Shekspirning pyesalari unutilmaydi, o‘lmaydi, nima uchun tomoshabinlar hali ham ularni ko‘rishni istaydilar, aktyorlar esa, bu pyesalarda rol ijro etishni orzu qiladilar? Shekspir kim to‘g‘rida yozmasin: Daniya shahzodasimi yoki Misr malikasimi, Venetsiya sarkardasimi, u hamma vaqt barcha davrlarda kishini hayajonga soladigan yuksak insoniy hissiyotlar haqida hikoya qiladi. Shekspir pyesalardan tashqari she’rlar – sonetlar ham yaratgan. Uning besh jildli «Tanlangan asarlari» o‘zbek tilida chop etilgan. Albatta, Shekspir asarlarini o‘qish qiyin, lekin juda qiziqarli. Siz biroz katta bo‘lganingizda, uning she’r va pyesalarini o‘qib, teatrdagi uning asarlari asosidagi spektakllarni tomosha qilar ekansiz, shubhasiz, Shekspir jahondagi mashhur yozuvchilardan biri ekaniga ishonch hosil qilasiz. Ko‘pgina tadqiqotchilar V. Shekspir asarlarini tahlil qilar ekanlar, bu pyesalarning muallifi antic adabiyot, Rim va ingliz huquqi, jug‘rofiya, ko‘pgina chet tillarini juda yaxshi bilishi, faqat tajribali siyosiy arboblarga xos bo‘lgan davlat boshqaruvining eng murakkab masalalaridan mufassal xabardor bo‘lishi kerakligini ta’kidlaganlar, bundan teatr artisti bu va boshqa ko‘pgina sohalarda shu qadar bilimdon bo‘lishi mumkin emas degan xulosaga chiqqanlar.

[<https://www.ziyo.uz>] Bu shubhalarga javob buyuk dramaturg hayoti va ijodi tadqiqotchilaridan T. Boldunning “Shekspir: biroz lotincha, yanada kamroq yunoncha” asarida qayd etilgan: “Vilyam Shekspir o‘z davrida grammatika maktabi beradigan saboqni olgan bo‘lsa ham badiiy adabiyot mezonlari bilan o‘lchanganda zamondoshlaridan qolishmaydigan bilimga ega bo‘lgan. Shekspirning mumtoz adabi adabiyot mezonlari bilan o‘lchanganda zamondoshlaridan qolishmaydigan bilimga ega bo‘lgan. Shekspirning mumtoz adabiyotdan va uning badiiy usullaridan benihoya xabardorligini qandaydir mo‘jizalarga yo‘yishga hojat yo‘q. Stratforddagi grammatika maktabi faqat talab qilingan bilimlarnigina bergan” degan fikrlarni keltirish kifoya. Guvohi bo‘lganimizdek shoir va dramaturg tug‘ma istedod sohibi bo‘lgan. U hech qanday sovrinlarga, mukofotlarga qiziqmay faqat ijod qildi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, yozilgan asarlar yillar davomida o‘quvchilar, teatrdagi o‘ynalayotgan pyesalar tomoshabinlar ko‘nglidan joy olib kelmoqda. Pyesalardagi davlat arboblarning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq masalalarga kelganda V. Shekspirning bundan yaxshi xabardor bo‘lganligiga ajablanishga hojat yo‘q. Chunki u Qirollik teatrining artisti edi, saroyda ko‘rsatilgan tamosholarda qatnashib, bu yerdagi muhitdan yaxshi xabardor bo‘lgan. Bu davrlarda Qirollik saroyidagi teatrlarga hammani ham qabul qilishmagan. Yuqoridagi Shekspir ijodi, ilmi, qobiliyati haqidagi uydirmalarning xato ekanligini isbotlaydi. [<https://www.ziyo.uz> akmal saidov yuridik fanlar dok,pr. “jahon adabiyoti” jurnal. 2010 4-son] Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, har qanday badiiy matnni o‘rganish uni o‘qishdan boshlanadi. O‘qishning qandayligi o‘quvchida badiiy asarga munosabatni shakllantiradi. Chunki asarda aks etgan insoniy sezim va tuyg‘ular o‘quvchiga yetib boradigan tarzda o‘qilgandagina badiiy asar muayyan qiymat kasb etadi. Aks holda har qanday ko‘rkam matn shunchaki harflar yohud tovushlar yig‘indisidangina iborat bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham adabiy ta’limda ifodali o‘qish o‘ta muhim sanaladi. [Dolimov S. Ubaydullayev H, Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T “O‘qituvchi”, 1967. 91-bet] Bu metod o‘z navbatida ifodali o‘qish deb nomlangan. Biz o‘rganayotgan Shekspirning “Hamlet” dramasi she’riy usulda yozilgan. Asarni o‘qishda

birinchi navbatda o'quvchidan ifodali o'qish talab qilinishi bejiz emas. O'qish davomida faqat tinish belgilarigagina rioya qilib o'qish emas, balki har qanday matnni his qilib o'qilsagina undan estetik zavq oladi. "Hamlet" asarida yigirma beshta personaj ishtirok etgan. Tabiiyki, bular hammasi o'z shaxsiy harakteriga, asarda o'z vazifasiga ega. Qaysi biridan salbiy qahramon bo'lsa, yana boshqasi ijobiy. Bu vaqtda o'quvchidan talab qilinadigan narsa – asar o'qish davomida har bir qahramonning ruhiy holatiga kira olishi ya'ni hissiyotga berilib o'qish, vaziyatga mutaaanosib ravishda ovoz tonini o'zgartirishi, inntonatsiya bilan mutolaa qilish - bularning barchasi ifodali o'qish metodini qamrab oladi. Ifodali o'qish metodining afzalliklari o'quvchilada shu asarga nisbatan muhabbatni ortishiga, asarni tushunishga va uni o'zlashtirishga yordam beradi. Ifodali o'qishni o'rgatishda o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. O'qiyuvchining o'zi biror-bir kamchiliksiz asarni o'qiy olmas ekan, adabiyot darslaridan kutilgan maqsad yuzaga chiqmaydi. Bu haqida mashhur metodistlar shunday fikr bildirishadi: "...ifodali o'qishning ohangini tekst mazmunidan ta'sirlanish yo'li bilan belgilash ma'qul". Demak, ifodali o'qishni har bir personajning tabiatiga baho bergan holda o'qish va o'quvchilarga ta'sir kuchini yetkazib berish talab qilinadi. Shundagina bola muallif holatini,uning his tuyg'ularini tuyadi. Abdulla Qahhor aytganidek: "Bilgan bilib qo'ya berishi mumkin, ammo his qilgan his qilib qo'ya bermaydi". Shunday ekan, ifodali o'qish metodi bu – qalban his qilib o'qishdir. Bugungi kunda ta'lim berish sifati eng yuqorida turuvchi davlatlar – Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika, Finlandiya kabi mamlakatlarning ilg'or tajribalarini, sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan dars o'tish yondashuvlarini milliy ta'limga olib kirish va uni keng yoyishda, darslarni jahon standartlariga mos ravishda o'tish hozirgi kunning dolzarb mavzusi bo'lib kelmoqda. Har bir o'qituvchi darsga kirar ekan, quyidagi savollarni dars maqsadi qilib olmog'i shart:

1. O'quvchilar nimani o'rganishni xohlaydi?
2. Darsni qanday uslubda tashkil etishimni xohlaydi?
3. Men ularga nimani o'rgatishni istayman?

4. O'quvchilar samarali o'rganishlarini qanday nazorat qilaman?

O'quvchilar "Hamlet" asarini o'qir ekan qanday bilimlarga ega bo'ladi? Nima sababdan bu asar yuqori sinflar uchun darslikka kiritilgan? o'quvchilar tragediyadan nimani o'rganishadi? Bizning mintalitetga mos ravishda tanlangan asarmi? kabi savollar o'quvchi va dars beruvchida bo'shliq paydo qilmasligi kerak. Asarning adabiy-estetik manzarni ochib berish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Shekspir olimlari "Hamlet" haqida gapirganda "haligacha yozilgan eng qiziqarli pyesa" deb atashadi. Lyuis Eliotning "Hamlet", albatta, badiiy muvaffaqiyatsiz asar degan tanqidiga "agar bu muvaffaqiyatsizlik bo'lsa, unda muvaffaqiyatsizlik muvaffaqiyatdan yaxshiroq" degan javob bilan fikrini tamomlaydi. "Hamlet" ni o'qish kerakmi yoki yo'qmi degan savol munozarali bo'lishi mumkin, ammo hech bir asar sababsiz yozilmasligi mumkin emasligini, undan foydali unsurlarnigina qabul qilish kerakligini uqtirish lozim. [Leland Ryken Shekspirning "Hamlet" asaridab besh saboq". 2014] "Hamlet" dramasi hayotiy saboqlarni o'z ichiga olgan va Shekspirning adabiyotga qanchalik kuchli ta'sir qilgani haqida yaxshi ma'lumot beradigan spektakldir. U axir fojiali spektakl, bola psixologiyasiga ta'sir kuchini o'tkazadi, unda o'lim, qotillik, g'am- qayg'u tasvirlangan deyishingiz mumkin. Ammo, hayot faqat xursandchilik va rangli his- tuyg'ulardan iborat emasligini ko'rsatuvchi drama, hayotiy dars kitobi deyish mumkin. Asarni to'liq o'qib chiqish qiyin bo'lishi mumkin, ammo uni yakunlash katta yutuq hisoblanadi. Nima uchun Shekspirning "Hamlet" i bugungi kunda ham o'qitiladi? Asar 1599-1603 yillar oralig'ida yozilgan bo'lishiga qaramay, hali ham ko'plab davlatlarda, shu jumladan bizning yurtda ham o'qitiladi. Asar bosh qahramoni Hamlet bizni o'zligimiz "men" imizga sodiq qolishni o'rgatadi. Pyesa odamlarga qasos olish har doim ham javob emasligini ko'rsatib beradi. Bu juda muhim axloqiy saboqdir. Poloniy o'g'li Laertga nima bo'lishidan qat'iy nazar o'ziga sodiq bo'lishini aytib, o'z fikrini bayon qiladi:

"Give the thoughts no tongue.

Nor any unproportioned thought his act.

Be that familiar, but by no means vulgar”. [Uilyam Shekspir “Hamlet” Tanlangan asarlar 5 jildlik. T- 1983]

Har qanday hissiyotlarda inson birinchi navbatda o‘z chegarasini unutib qo‘ymasligi ta’kidlanadi. Asarning tushunilish darajasini oshirib beruvchi kalit so‘zlarning o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga taqdim qilinishi, dramani chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi. Masalan, qasos – bu his Gamletda qanday namoyon bo‘ldi? Bu tuyg‘u uning taqdiriga qanday ta’sir qildi? Sevgi- Gamletdagi sevgining murakkab tasvirini tahlil qiling. Asar qahramonlarining xatti- harakatlari va qarorlariga sevgi qanday ta’sir ko‘rsatgan? Asardagi fojiali voqealarga muhabbat qanday hissa qo‘shadi? Munosabatlar- Gamletdagi murakkab munosabatlar tarmog‘ini ko‘rib chiqish. Gamlet, Gertruda, Kladviy, Ofeliya va boshqalar o‘rtasidagi munosabatlar dramaning markaziy ziddiyatlariga qanday hissa qo‘shgan? Metodlar ichida eng samaralisi bu o‘quvchilar xohishi qo‘llab quvvatlangan metoddir. Ya’ni darsni qay tartibda o‘tilishi haqida o‘quvchilardan so‘ralgan fikr va mulohazalar o‘rinli joylarda amalda qo‘llash lozim. Taniqli fransuz pedagog- gumanist S.Frene “Jamiyatning demokratlashuvi maktabning demokralashuvidan boshlanadi. Avtoritar maktab demokratik jamiyatning bo‘lajak fuqarolarini shakllantira olmaydi”, - deya ta’kidlagan. [Frene S. Izbrannie pedagogicheskie sochineniya. - Moskva, 1990. 243] Bu fikrlarni tasdiqlagan holda, avvalo bolaning fikr va xohishlarini qo‘llab- quvvatlash, ularga keng va teng sharoit yaratib berish hozirgi kundagi muhim vazifalardan sanaladi. Adabiyota darslarida o‘tilayotgan asar va amaliy mashg‘ulotlarni bir- biriga chambarchas bog‘liqlikda tashkil etish jahon andozasining amaldagi ko‘rinishi bo‘ladi. Adabiyotni sahnada dramatik rol o‘ynash metodini ilk bor Buyuk Britaniya va Amerika davlatlari fanga olib kirgan bo‘lib, bu metodning maqsadi bilim oluvchilarga adabiyot tarixi bo‘yicha asosiy bilimlarni olishga, shuningdek, jamoada ishlash ko‘nikmasini ham shakllantirishga xizmat qilgan. [Hoa Mai Phuong Nguyen. The use of drama role – playing in teaching English literature for English majored students: An action reaserch at van lang university, 2021] Asarni o‘rganishga berilgan soatlardan unumli foydalangan holda,

“Hamlet” asarini ham turli xil metodlar asosida bolalarga o‘rgatish va nimani o‘zlashtirganini o‘z vaqtida bilib olish o‘qituvchilar oldida turgan katta vazifa sanaladi. Kuchli o‘qituvchining o‘quvchilari ham xuddi shunday bo‘ladi. Ularga motivatsiyani ya’ni ilm olishga chorlashni uqtirib borish kerak. Jahon adabiyotshunoslari Malida va Savitri o‘quv mativatsiyasini oshirish uchun quyidagi uchta usuldan foydalanganlar: mukofotlar berish, hamkorlikda o‘rgatish va ko‘rgazmali qurollar yordamida. Bu usullar butun sinfning diqqat e’tiborini aktyorlikka qaratishga va yaxshi natijaar uchun rag‘batlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan. [Dilys Karen Rees. The importance of studying literature for the future. – Universidade Federal de Goias, 2019]. Zerikish-fikrning dushanmi bo‘lgan holda, 45 daqiqalik darsni samarali o‘tkazish, bolalarni avval uchramagan fikrlar bilan to‘qnash keltirish, adabiyot darsi orqali, unda berilgan asar orqali o‘quvchilarda nafaqat aktyorlik mahorati, balki tinglash, anglash, talaffuz qobiliyatlari, til ko‘nikmalari va bilimlarini oshirishga xizmat qilish kerak. Buning uchun faqat metodlar bilan emas, balki muhit ham alohida o‘rin tutadi. Adabiyot darslari uchun alohida sinf xonalarining tashkil etilishi, kichik muzey xonalarning bor bo‘lishi o‘quvchilarda adabiyotga kirish jarayonini tezlashtirib yuboradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ismatova Yulduz Shuhrat qizi “Shekspirning “Otello” tragediyasi asliyatdan tarjimai tahlili (Jamol Kamol tarjimalari asosida) Samarqand, 2014, 17-bet]
2. <https://www.ziyo.uz>
3. <https://www.ziyo.uz> akmal saidov yuridik fanlar dok.pr. “jahon adabiyoti” jurnal. 2010 4-son
4. Dolimov S. Ubaydullayev H, Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T “O‘qituvchi”, 1967. 91-bet
5. Leland Ryken Shekspirning “Hamlet” asaridab besh saboq”. 2014
6. Uilyam Shekspir “Hamlet” Tanlangan asarlar 5 jildlik. T- 1983
7. Frene S. Izbrannie pedagogicheskie sochineniya. - Moskva, 1990. 243
8. Hoa Mai Phuong Nguyen. The use of drama role – playing in teaching English literature for English majored students: An action reaserch at van lang university, 2021
9. Dilys Karen Rees. The importance of studying literature for the future. – Universidade Federal de Goias, 2019.